



The civil law status of online platforms in electronic contractual relationships of sale and purchase

Zarifa UBAYDULLAEVA¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2025
Received in revised form
15 April 2025
Accepted 25 April 2025
Available online
25 May 2025

Keywords:

information intermediary,
online platform,
e-commerce,
hosting service,
e-commerce operator,
safe harbour regime,
Oberdorf v. Amazon,
Uber Systems Spain.

ABSTRACT

Modern information technologies undoubtedly have a significant impact on public relations, resulting in the emergence of new socio-legal relations. Legal science is faced with the problem of its classification and legal regulation by characteristics and features. As a result of the development of e-commerce, purchase and sale relations are carried out remotely, by concluding online contracts. The article considers the legal status of online platforms acting as intermediaries in the conclusion of online contracts. Currently, various debates and discussions are underway around the legal status of information intermediaries. The European Union adopts directives, laws, and other documents that regulate the activities of information intermediaries. We are faced with the question: "Who is an information intermediary?" "What is the status of online platforms as information intermediaries in civil legal relations?" The question of finding answers to these questions remains open. The article analyzes the legal relations between information intermediaries, in particular online platforms, and sellers and buyers. The study was conducted using the comparative analysis method, mainly based on European Union directives. Case law examples on the liability of online platforms are presented and analyzed.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss4/S-pp34-43>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ PhD student, Tashkent State University of Law. E-mail: z.ubaydullayeva@tsul.uz

Elektron oldi-sotdi shartnomaviy munosabatlarda axborot vositachisining fuqarolik huquqiy javobgarligi

Kalit so'zlar:

axborot vositachisi,
online platforma,
elektron tijorat,
hosting xizmati,
elektron tijorat operatori,
xavfsiz bandargoh rejimi,
Oberdorfning Amazonga qarshi ishi,
Uber Systems Spain sud ishi.

ANNOTATSIYA

Zamonaviy axborot texnologiyalari shubhasiz ijtimoiy munosabatlarga katta ta'sir qilmoqda va buning natijasida yangidan yangi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar vujudga kelmoqda. Huquq fani oldida esa, ularni belgi va xususiyatlarga qarab tasniflash hamda huquqiy tartibga solish muammosi vujudga kelmoqda. Elektron tijoratning o'sishi natijasida oldi-sotdi munosabatlari masofadan online shartnomalar tuzish orqali amalga oshirilmoqda. Elektron shartnomalar tuzishda vositachi sifatida qatnashuvchi online olatformalarning huquqiy maqomi ushbu maqolada tadqiq etilgan. Hozirgi kunda butun dunyoda axborot vositachisining huquqiy maqomi qandayligi xususida turli bahs va munozaralar bo'lib o'tmoqda. Yevropa Ittifoqida axborot vositachilari faoliyatini tartibga solish bo'yicha direktivalar, qonunlar va boshqa hujjatlar qabul qilinmoqda. Oldimizda "Axborot vositachisi kim?" "Axborot vositachisi sifatida online platformalarning fuqarolik huquqiy munosabatlardagi maqomi qanday?" degan savollarga javob topish masalasi ko'ndalang turibdi. Ushbu maqolada axborot vositachisi, xususan online platformalarning sotuvchi va xaridor bilan munosabatlari huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Asosan, Yevropa Ittifoqi direktivalariga asoslanib qiyosiy tahlil metodidan foydalanib tadqiq qilingan. Online platformalarning javobgarligi yuzasidan sud amaliyotidan misollar keltirilgan va tahlil qilingan.

Гражданско-правовой статус онлайн-платформ в электронных договорных отношениях купли-продажи

Ключевые слова:

информационный посредник,
онлайн-платформа,
электронная коммерция,
хостинг-сервис,
оператор электронной коммерции,
режим «безопасной гавани»,
дело Oberdorf против Amazon,
дело Uber Systems Spain.

АННОТАЦИЯ

Современные информационные технологии, несомненно, оказывают значительное влияние на общественные отношения, что приводит к формированию новых социально-правовых взаимодействий. Перед юридической наукой встает задача классификации и правового регулирования этих отношений с учётом их признаков и особенностей. С развитием электронной коммерции договоры купли-продажи всё чаще заключаются дистанционно, в онлайн-формате. В данной статье рассматривается правовой статус онлайн-платформ, выступающих посредниками при заключении таких договоров. На сегодняшний день в международной правовой доктрине и практике продолжают активные дискуссии относительно правового положения информационных посредников. В Европейском союзе приняты директивы, законы и иные нормативные акты,

регулирующие деятельность информационных посредников. В этой связи актуализируются вопросы: кто может быть признан информационным посредником? Каков правовой статус онлайн-платформ в гражданско-правовых отношениях? В статье анализируются правовые отношения между информационными посредниками, в частности онлайн-платформами, и сторонами договоров купли-продажи — продавцами и покупателями. Исследование базируется на методе сравнительного анализа, преимущественно с опорой на директивы Европейского союза. Также приводятся примеры из судебной практики, иллюстрирующие подходы к определению ответственности онлайн-платформ.

KIRISH

Elektron tijoratning generatorlari va elementlaridan biri axborot vositachisi institutidir. Axborot vositachilari yuridik institut sifatida raqamli maydonda muhim rol o'ynaydi. Ular faol raqamli makonda fuqarolik muomalasining turli subyektlari o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi. Axborot vositachilari faqat o'ziga xos bo'lgan turli funksiyalarni bajaradilar, xususan, ular raqamli ma'lumotlarni qayta ishlaydilar va ularni web saytga joylashtiradilar, shu jumladan foydalanuvchi maqsadlari yo'lida harakat qiladilar. Ular shartnoma asosida elektron tijoratda elektron hujjatlar va elektron xabarlar aylanishiga oid xizmatlarni taqdim etadilar, o'z vakolatlari doirasida, shuningdek elektron tijorat ishtirokchilariga ko'rsatiladigan xizmatlar shartlarini belgilaydi. Shu bilan birga, ular ma'lumot to'playdi, qidiruvda yordam beradi, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishga yordam beradi yoki boshqa zarur tijorat operatsiyalarini amalga oshiradi.

Raqamli fuqarolik muomalasining zamonaviy sharoitida axborot vositachilari iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan axborot vositachilarining faoliyatini huquqiy tartibga solish va ularning fuqarolik maqomi haqida savol tug'iladi.

MATERIAL VA METODLAR

Ushbu maqolada axborot vositachisi kim, uning vazifalari nimalardan iboratligi, elektron tijoratni amalga oshirishda vositachi sifatida qanday huquq va majburiyatlarga ega ekanligi tahlil qilingan. Online platformalarning vositachi sifatidagi o'rni, ularning sotuvchi hamda xaridor bilan bo'lgan munosabatlarning huquqiy tabiati, ularning javobgarligi masalalari chuqur tadqiq qilingan.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishida analiz, sintez, induksiya, qiyosiy tahlil kabi metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, online platformalarning fuqarolik javobgarligi yuzasidan sud amaliyotidan misollar keltirilgan.

TADQIQOT NATIJALARI

"Axborot vositachisi" – Internet tarmog'ida boshqa shaxslar tomonidan yaratilgan axborot yoki materiallar bilan bevosita faoliyat yurituvchi, telekommunikatsiya vositalari orqali xizmatlar ko'rsatuvchi, o'z nomidan ish ko'ruvchi va o'z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiruvchi shaxs [1]. Axborot vositachisi atamasi turli davlatlarda turlicha nomlar bilan keltirilgan. AQSH da "xizmat ko'rsatuvchi provayder", "interaktiv kompyuter xizmati provayderi", "axborot kontenti provayderi" va Yevropada - "axborot

jamiyati xizmatlarini provayderi" (axborot jamiyati xizmatlarini provayderi), "vositachi xizmat ko'rsatuvchi provayder", "internet yoki onlayn platforma" (onlayn platforma) degan nomlar bilan uchraydi [2].

S.V. Novikova axborot vositachisining xususiyatlarini quyidagicha ta'riflaydi:

- 1) bu yerdagi obyekt nomoddiy ne'mat (axborot olish huquqi);
- 2) axborot vositachisining faoliyati to'lovli xususiyatga ega;
- 3) ko'rsatilgan xizmatlar natijasining nomoddiy xususiyati;
- 4) axborot vositachilarining faoliyati kafolat berish xarakteriga ega emas;
- 5) majburiy shart - axborot vositachilari uchun maxsus talablarning mavjudligi [3].

"Onlayn platforma" atamasi odatda qidiruv tizimlari, ijtimoiy media, elektron tijorat platformalari, ilovalar do'konlari, narxlarni taqqoslash veb-saytlari, reklama tarmoqlari va boshqa shunga o'xshash onlayn maydonlarni nazarda tutish uchun ishlatiladi [4].

UNCITRALning Elektron tijorat to'g'risidagi Model qonuni vositachi va axborot tizimi atamalariga quyidagicha ta'rif beradi: (e) "vositachi" ma'lum bir ma'lumot xabariga nisbatan, boshqa shaxs nomidan ushbu ma'lumot xabarini yuboruvchi, qabul qiluvchi yoki saqlaydigan har qanday shaxsni yoki ushbu ma'lumot xabari bilan bog'liq boshqa xizmatlarni taqdim etadi; f) "axborot tizimi" ma'lumotlar xabarlarini tayyorlash, jo'natish, qabul qilish, saqlash yoki boshqa usulda qayta ishlash tizimini anglatadi. "Vositachi" atamasining ta'rifi ham professional, ham professional bo'lmagan vositachilarni o'z ichiga oladi. Namunaviy qonunning "e" bandida vositachining asosiy funksiyalari, ya'ni boshqa shaxs nomidan ma'lumotlar xabarlarini qabul qilish, uzatish yoki saqlash bo'yicha funksiyalarining ro'yxati keltirilgan. Tarmoq operatorlari va boshqa vositachilar ma'lumotlar xabarlarini formatlash, tarjima qilish, yozib olish, autentifikatsiya qilish, tasdiqlash va saqlash, elektron tranzaksiyalar xavfsizligi kabi qo'shimcha xizmatlarni taqdim etishi mumkin. Model qonunidagi "vositachi" atamasi umumiy toifa sifatida emas, balki har bir ma'lumot xabari uchun ta'riflanadi, shu bilan bir shaxs bitta ma'lumot xabarining muallifi yoki manzili va boshqa xabarning vositachisi bo'lishi mumkinligini belgilaydi [5].

Axborot vositachisi tushunchasi Amerika Qo'shma Shtatlari qonunida va Yevropa Ittifoqi direktivalarida ham keltirilgan. Xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarining Raqamli Mingyillik mualliflik huquqi to'g'risidagi qonuni (DMCA) xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning javobgarligi va mualliflik huquqi egalarini (mualliflar, mutlaq huquqlarning boshqa egalari) axborot vositachilari jalb qilgan holda himoya qilish tartiblarini va axborot vositachilarining javobgarlikdan ozod qilish shartlarini batafsil tartibga soladi [6].

Yevropa Ittifoqida elektron tijoratda sotuvchi va xaridor uchrashadigan virtual makon hisoblangan online savdo platformalari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik amaliyotga kiritilgan. Raqamli xizmatlar to'g'risidagi qonun (YeI) 2022/2065 Reglamentining 3-moddasida Vositachilik xizmati hamda online platforma tushunchalariga ta'rif berilgan. Unga ko'ra, "Online platforma" deganda, xizmatni oluvchining iltimosiga ko'ra, axborotni saqlash va ommaga tarqatuvchi xosting xizmati tushuniladi. "Vositachilik xizmati" axborot jamiyatining quyidagi xizmatlaridan birini anglatadi:

(i) xizmatni oluvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni aloqa tarmog'ida uzatish yoki aloqa tarmog'iga kirishni ta'minlashdan iborat bo'lgan "shunchaki o'tkazgich" xizmati;

(ii) "keshlash" xizmati, ya'ni xizmatni oluvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni aloqa tarmog'ida uzatishdan iborat bo'lgan, ushbu ma'lumotni avtomatik, oraliq va vaqtinchalik saqlashni o'z ichiga olgan, faqat axborotni yanada samaraliroq qilish maqsadida amalga oshiriladigan, ularning iltimosiga binoan boshqa oluvchilarga yuborish;

(iii) xizmatni oluvchi tomonidan va uning so'roviga ko'ra taqdim etilgan ma'lumotlarni saqlashdan iborat "xosting" xizmati; [7]

Axborot vositachisi atamasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida turli nomlar bilan kelgan. "Elektron tijorat to'g'risida" gi qonunning 3-moddasida elektron tijorat operatori — elektron tijoratda elektron hujjatlar va elektron xabarlar aylanishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Qonunning 11-moddasiga asosan, "Elektron tijorat operatorlari sifatida telekommunikatsiya tarmoqlari operatorlari va provayderlari, elektron savdo maydonchalari operatorlari, to'lovga oid xizmatlarni yetkazib beruvchilar, elektron tijorat subyektlarining elektron hujjatlarini va elektron xabarlarini saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar" ishtirok etadilar. Yuqorida sanab o'tilgan subyektlarning barchasi elektron tijorat huquqida yuridik shaxs maqomida qatnashadi. Axborot vositachisi yangi qonunda elektron tijorat operatori sifatida nomlanib, uning huquq va majburiyatlari qonun bilan belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-iyundagi 185-sonli "Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan "Elektron tijoratni amalga oshirish Qoidalari"ga ko'ra, axborot vositachilari sotuvchi va xaridor o'rtasida tuziladigan shartnomalarning taraflari hisoblanmaydilar. Axborot vositachisi berilayotgan, olinayotgan, saqlanayotgan elektron hujjatlar va elektron xabarlarni nazorat qilishga yoki ularning ishonchliligini, shuningdek ularning qonun hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilishga yoki ishonchliligini tekshirishga majbur emas, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-avgustdagi 249-sonli "Elektron yarmarkalar, auksion va tanlovlar tashkilotchilarining axborot vositachilarining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarorida axborot vositachilarining huquqiy maqomiga oid bir qator normalar nazarda tutilgan. Ushbu nizom doirasidagi munosabatlarda axborot vositachisi quyidagi huquqlarga ega: "elektron tijorat ishtirokchilariga xizmatlar ko'rsatish shartlarini va o'z xizmatlari narxlarini belgilash, qonun hujjatlarida belgilangan holatlar bundan mustasno; axborot vositachisining qoidalarini va elektron tijorat ishtirokchilariga bo'lgan talablarni belgilash; elektron tijorat ishtirokchilariga, ular belgilangan qoidalarni buzgan, elektron tijorat ishtirokchisining axborot vositachisi va (yoki) elektron tijorat ishtirokchilari oldidagi to'lanmagan qarzlari mavjud bo'lgan taqdirda xizmatlar ko'rsatishni to'xtatib turish; elektron tijorat ishtirokchilariga elektron tijorat bilan bog'liq bo'lgan axborot, ta'lim, maslahat, logistika va boshqa qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish; boshqa axborot vositachilari bilan hamkorlikda ma'lumotlar bazalarini, shu jumladan elektron tijoratning nohalol ishtirokchilari reyestrlarini yaratish" va x.k.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 26.12.2024 yildagi 885-son "O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida: elektron tijorat operatorlari (elektron savdo platformasi, buyurtmalar agregatori va raqamli striming xizmati operatorlari) sifatida faqat yuridik shaxslar — O'zbekiston Respublikasi rezidentlari faoliyat yuritishi mumkinligi; elektron shartnoma yoki bitimlar orqali hech qanday majburiyatlar olmaydigan, foydalanuvchilarga o'zining axborot resursi yoki platformasi orqali tovar (ish, xizmat) hamda raqamli mahsulotlar haqida ma'lumot yoki axborot berish bilan cheklanadigan yuridik shaxs va (yoki) yakka tartibdagi tadbirkor elektron tijorat operatori hisoblanmasligi haqidagi takliflar qabul qilingan. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, elektron tijorat operatori ham ijtimoiy munosabatlarda subyekt sifatida o'ziga huquq va majburiyatlar olishi lozimligi qonun bilan mustahkamlab qo'yildi.

TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI

Axborot vositachisi va uning sotuvchi va xaridor bilan bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarini huquqiy tahlil qiladigan bo'lsak, birinchidan, tovar yoki xizmatlar yetkazib beruvchi va vositachi sifatida onlayn platforma o'rtasidagi munosabatlarni teng deb hisoblash qiyin. Odatda, online platforma yetkazib beruvchiga qaraganda shartnomaning kuchli tarafi hisoblanadi, chunki u shartnomani tuzadi, uni bir tomonlama o'zgartirish imkoniyatiga ega va shartnoma bajarilishi ustidan texnik nazoratga ega [8].

Ikkinchidan, tovar yoki xizmatlarni yetkazib beruvchi har doim ham tadbirkorlik subyekti bo'lmasligi mumkin hamda uning mijoz bilan munosabatlarini tadbirkorlik munosabatlari deb hisoblash qiyin masala. Va nihoyat, bir tomondan, mijoz va platforma, ikkinchi tomondan, mijoz va yetkazib beruvchi o'rtasidagi munosabatlarning tabiati ham noaniq. Garchi dastlab onlayn platformalar, odatda, yetkazib beruvchilarning mazmuni va xatti-harakatlari uchun javobgar bo'lmaydigan vositachilar hisoblangan bo'lsa-da, bugungi kunda bu qoida amalda o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Chunki zamonaviy platformalar avvalgilaridan juda farq qiladi. Umuman olganda, bu platformalar tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklar uchun javobgar bo'lishi mumkinmi yoki yo'qmi, olimlar o'rtasida jiddiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. Ham huquqiy doktrinada, ham Yevropa Komissiyasi tomonidan tayyorlangan so'nggi hujjatlarda platforma operatorlari va platforma yetkazib beruvchilari o'rtasidagi munosabatlar "platformadan biznesga" yoki P2B deb nomlangan. Odatda ular an'anaviy biznesdan biznesga (B2B) munosabatlarning bir turi bo'lsa-da, u ko'plab o'ziga xos xususiyatlarga ega. P2B munosabatlari uchun muhim narsa platforma va uning yetkazib beruvchilari o'rtasidagi nomutanosiblikdir: platforma operatori shartnomaning kuchli tarafi bo'lib, u shartnoma mazmunini bir tomonlama belgilaydi va ikkalasi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar ustidan nazoratni o'z zimmasiga oladi [9].

Online platforma orqali tovarlar yoki xizmatlarga buyurtma bergan mijozlar bilan munosabat uning operatori bilan tuzilgan shartnomaga bog'liq. Odatda, shartnoma faqat platformadan qanday foydalanish kerakligi va bu borada platforma operatori va mijoz tomonidan qanday majburiyatni bajarishi haqidagi asosiy qoidalarni belgilaydi. Biroq, odatda, platforma operatori va mijoz o'rtasidagi shartnoma munosabatlari mijoz yetkazib beruvchi tomonidan taklif qilingan tovarga (xizmatga) buyurtma berganidan keyin tugaydi: bu yerda mijoz va yetkazib beruvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma munosabatlari paydo bo'ladi. Amalda bu o'ziga xoslik yetkazib beruvchilar tomonidan

mijozlarning huquqlarini buzganlik uchun platforma operatorlarining javobgarligi bo'yicha ko'plab nizolarni keltirib chiqardi.

Taraflar o'rtasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatda taraflarning huquq va majburiyatlari qonun bilan belgilanadi. Qarzdorning javobgarligi bilan birga bajarish majburiyati qonun bilan tartibga solinadi va belgilanadi. Bu majburiyat "qonuniy majburiyat" deb ataladi. Anglo-sakson huquqida u "statutory obligation" deb ataladi [10].

Albatta, umumiy qoidaga ko'ra, platforma operatorlari yetkazib beruvchilarning o'z majburiyatlarini buzganliklari uchun javobgar emas. Odatda, online platformalar vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchilar bo'lib, "xavfsiz bandargoh" rejimidan foydalanadi. Ushbu rejim 2000-yilda elektron tijorat bo'yicha 2000/31/EC Yevropa Komissiyasi direktivasi bilan kiritilgan [11]. Direktivaning 12 dan 15 gacha bo'lgan moddalariga ko'ra, keshlash, xosting va "shunchaki o'tkazgich" xizmatlarini yetkazib beruvchilar odatda o'z foydalanuvchilari tomonidan joylashtirilgan kontent uchun javobgar emaslar. Platformalarning xosting-provayderlar turi vositachilik xizmati bo'lganligi sababli, ushbu qoidalar ularga nisbatan qo'llaniladi. Biroq, zamonaviy amaliyot shuni ko'rsatadiki, har doim ham online platformalarni shunchaki vositachi sifatida ko'rib chiqish mumkin emas. Bundan tashqari, har doim ham platformalarni Axborot jamiyati xizmatlari to'g'risidagi 2015/1535 Yevropa Ittifoqi direktivasi (EI) ma'nosida axborot jamiyati xizmatlarini etkazib beruvchilar sifatida ko'rib chiqish ham mumkin emas [12]. Aksincha, platformalarning ba'zilari faqat tovarlar yoki xizmatlarni taqdim etishga yordam beradiganlar vositachi sifatida emas, asosiy xizmatni etkazib beruvchilar, ya'ni sotuvchilar, haydovchilar, hosterlar va boshqalar sifatida ko'rib chiqiladi.

Online Platformalarning javobgarligi masalasiga oid bir nechta sud jarayonlari bo'lib o'tgan. Ispaniyada Uber va Professional taksi haydovchilar uyushmasi o'rtasidagi sud jarayoni Barselonadagi (Ispaniya) professional taksi haydovchilari uyushmasi bo'lgan Asociacion Profesional Elite Taxi ("Elite Taxi") tomonidan boshlangan. Unda da'vogar Uber Systems Spain tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyat shunchaki transport xizmatimi yoki elektron vositachilik xizmatimi yoki axborot jamiyati xizmatimi degan da'volar bilan chiqqan. Sud shunday umumiy xulosaga keldiki, vositachilik xizmati, masalan, asosiy protsessda muhokama qilinayotgan vositachilik xizmatidan maqsad smartfon ilovasi orqali va haq evaziga shaxsiy transport vositasidan foydalanayotgan noprofessional haydovchilarni talabgor shaxslar bilan bog'lashdan iborat. Bu online platforma shahar sayohatlarini amalga oshirish, tabiiy ravishda transport xizmati bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatar edi. Shunga ko'ra, 2017-yil 20-dekabrda chiqarilgan sud qarorida "transport sohasidagi xizmat" sifatida tasniflangan [13]. Shu bilan birga, sud Uber platformasi haydovchilar tomonidan transport xizmati ko'rsatish shartlariga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatganini ta'kidladi. Xususan, Uber hech bo'lmaganda yo'lkiraning maksimal miqdorini aniqlaydi, kompaniya yo'l haqi ustidan muayyan nazoratni amalga oshirgan.

Oberdorfning Amazonga qarshi ishi bo'yicha Amerika Qo'shma Shtatlarining Uchinchi Apellyatsiya sudi ham xuddi shunday yondashuvni qo'llagan. Bu holatda da'vogar Oberdorf xonim Amazondan iti uchun bo'yinbog' va bog'ich sotib olgan, lekin it bilan sayr qilish paytida yoqa sinib ketgan va xonimning ko'ziga urilib, ko'r bo'lib qolgan. Shu tufayli yetkazilgan zararni undirish uchun sudga da'vo qilgan. Garchi Amazon ushbu tovarlarning sotuvchisi bo'lmagani uchun yetkazilgan zarar uchun javobgar emasligini

ta'kidlagan bo'lsa-da, sud da'vogarning pozitsiyasini qo'llab-quvvatladi va Amazonni Pensilvaniyadagi qat'iy mahsulotlar javobgarligi to'g'risidagi qonunga bo'ysunadigan "sotuvchi" deb hisobladi [14].

Albatta, Uber va Amazon o'zlarining yetkazib beruvchilariga (taksi haydovchilari va sotuvchilari) sezilarli ta'sir ko'rsatadigan xizmatlardir. Ko'pgina platformalar unchalik katta ta'sirga ega emas va shuning uchun axborot jamiyati xizmatlarini yetkazib beruvchilar (ISS) tushunchasiga kiradi.

Shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi o'z qonunchiligini platformalar faoliyatini zamonaviy sohalarga moslashtirish uchun allaqachon ko'p harakatlarni amalga oshirdi. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida Raqamli xizmatlar to'g'risidagi 2022/2065 qonun (EI) qabul qilindi [15]. Xosting xizmati provayderlarining javobgarligi to'g'risidagi qoidalar ushbu Nizomning 6-moddasiga kiritilgan. Garchi ushbu moddaning 1-bandi Elektron tijorat to'g'risidagi Direktivaning 14-moddasida mavjud bo'lgan an'anaviy "xavfsiz bandargoh" qoidalarini takrorlagan bo'lsa-da, keyingi paragraflarda yangi qoidalar o'rin olgan. Xususan, 2-bandda, agar xizmatni oluvchi provayderning vakolati yoki nazorati ostida ishlayotgan bo'lsa, xavfsiz bandargoh rejimi qo'llanilmaydi. Bu shuni anglatadiki, onlayn platforma o'z mijozlari oldida javobgar bo'ladi, agar mahsulot yoki xizmatlarni yetkazib beruvchi haqiqatan ham platforma vakolati ostida bo'lsa. Nizomning 23-qismida tushuntirilganidek, iste'molchilarga treyderlar bilan masofaviy shartnomalar tuzishga imkon beruvchi onlayn platforma provayderi treyder tomonidan taklif qilinadigan tovarlar yoki xizmatlarning narxini belgilaydi (masalan, Uber kabi).

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqot ishidan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Yevropa Ittifoqida va AQShda axborot vositachilari uchun ham javobgarlik belgilangan va ular ijtimoiy munosabatlarga bevosita ta'sir o'tkazuvchi hisoblangan hollarda subyekti sifatida elektron tijorat munosabatlarida bevosita ishtirok etadilar. Lekin hali ham ularning tadbirkorlik subyektlari va iste'molchilar bilan munosabatlari to'liq o'rganilmagan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham, elektron tijorat operatori atamasi qonunchilikka kiritilgan bo'lib, o'z zimmasiga majburiyat olmaydigan, faqat axborot berish bilan cheklanuvchi platformalar ijtimoiy munosabatlarning subyekti hisoblanmasligi belgilangan. Lekin aynan qanday hollarda elektron tijorat operatorlari subyekt maqomida ishtirok etishi qonunchilikka nazarda tutilmagan. Bundan tashqari sudlar tomonidan elektron tijorat bilan bog'liq nizolarni hal etishda, ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib statistikasi yuritilishi va online platformalarning ushbu nizolardagi subyekt sifatidagi javobgarligi masalalari yoritilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Nazariya bo'yicha, axborot vositachisi o'z harakatlari uchun to'g'ridan-to'g'ri javobgar bo'lishi mumkin yoki majburiyat bo'yicha o'z foydalanuvchilarining harakatlari uchun bilvosita yoki ikkilamchi javobgar bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Fomina O.N. Legal status of the information intermediary // Bulletin of Civil Law. 2019. N 3. P. 171 - 191 p.
2. Ruzinazarov Shukhrat Nuralievich. PECULIARITIES OF THE LEGAL STATUS OF AN INFORMATION INTERMEDIARY IN THE FIELD OF ELECTRONIC COMMERCE. Journal of Law Research. 2022, 7 vol., issue 8, pp.37-54

3. Larisa V. Magdilova, Magomed-Sharip M. Aliev. Information and legal status of an information intermediary // Law and legislation. 2022;(1):182—184.
4. European Commission, 'Online Platforms' Commission Staff Working Document (2016), <https://eur-lex.europa.eu>
5. Типовой закон ЮНСИТРАЛ об электронной торговле и Руководство по принятию 1996 год с дополнительной статьей 5 бис, принятой в 1998 году Организация Объединенных Наций Нью-Йорк, 2006 год. (UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce and Guidelines for Enactment 1996 with supplementary article 5 bis adopted in 1998 United Nations New York, 2006)
6. Васичкин К.А. Регулирование деятельности информационных посредников в целях охраны интеллектуальных прав в сети Интернет по законодательству России, США и ЕС // Актуальные проблемы российского права. 2014. № 6. С. 1180 – 1184. (Vasichkin K.A. Regulation of the activities of information intermediaries in order to protect intellectual property rights on the Internet under the laws of Russia, the USA and the EU // Actual problems of Russian law. 2014. No. 6. P. 1180 – 1184).
7. Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council of 19 October 2022 on a Single Market For Digital Services and amending Directive 2000/31/EC (Digital Services Act) (Text with EEA relevance) OJ L 277. (October 27, 2022). Official Journal of the European Union, 65, 1-102.
8. Commission Staff Working Document Impact Assessment Annexes Accompanying the document Proposal for a Regulation of the European Parliament and of the Council on promoting fairness and transparency for business users of online intermediation services SWD(2018) 139 final Proposal for a Regulation on promoting fairness and transparency for business users of online intermediation services 2018/0112 (COD).
9. Filatova-Bilous N. Y. Online Platforms and New Challenges for Modern Law on E-Commerce, Problems of legality., 2023. Issue 162. pp. 312-329.
10. Seri Mughni Sulubara, T. Saiful Basri, Fauzan. Legal Aspects of E-Commerce Agreements in Shopee Platform in The Civil Law Code (Burgerlijk Wetboek). International Journal of Research and Review. 2023, 10 vol.; Issue 6, pp. 690-699
11. Directive 2000/31/EC of the European Parliament and of the Council of 8 June 2000 on certain legal aspects of information society services, in particular electronic commerce, in the Internal Market ("Directive on electronic commerce"), 32000L0031, CONSIL, EP. OJ L, 178 (2000). Retrieved from <http://data.europa.eu/eli/dir/2000/31/oj/eng>.
12. Directive (EU) 2015/1535 of the European Parliament and of the Council of 9 September 2015 laying down a procedure for the provision of information in the field of technical regulations and of rules on Information Society services (Text with EEA relevance), 32015L1535, EP, CONSIL. OJ L, 241. (2015). Retrieved from <http://data.europa.eu/eli/dir/2015/1535/oj/eng>.
13. Judgement of 20 December 2017, Uber Systems Spain SL, C-434/15, EU:C:2017:981.
14. Oberdorf v. Amazon.com Inc, No. 18-1041 (United States Court of Appeals for the Third Circuit. July 3, 2019). Retrieved from <https://law.justia.com/cases/federal/appellate-courts/ca3/18-1041/18-1041-2019-07-03.html>.

15. Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council of 19 October 2022 on a Single Market For Digital Services and amending Directive 2000/31/ EC (Digital Services Act) (Text with EEA relevance) OJ L 277. (October 27, 2022). Official Journal of the European Union, 65, 1-102.